
SO'X, FARG'ONA, BESHARIQ TUMANLARIDA, SHOHIMARDONDA SEL XAVFI E'LON QILINDI



So'x, Farg'ona, Beshariq tumanlarida, Shohimardonda sel xavfi e'lon qilindi

«O'zgidromet» joriy yilning 18-20 may kunlari kutilayotgan kuchli yomg'irlar yog'ishi sababli, respublikaning tog'oldi va tog'li hududlarida sel xavfidan ogohlantirdi (<https://hydromet.uz/uz/node/3359>).

Qayd etilishicha, Respublikamizning qator hududlarida, shu jumladan, Farg'ona viloyatining So'x, Farg'ona, Beshariq tumanlarida, Shohimardonda sel-suv toshqin hodisalari yuzaga kelishi mumkin.

Tog'oldi va tog'li hududlarda istiqomat qiluvchi fuqarolardan, dam oluvchilar hamda tog'li hududlarda harakatlanuvchi haydovchilardan ehtiyotkorlik choralarini ko'rish so'raladi.

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2023-05-18 17:54:38